

O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI.

Egamberdiyev Maxsudjon Muxsinovich

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq musiqasining cholg'u sozlari xaqida ma'lumot keltirilgan. O'zbek milliy cholg'u sozlari insonlarning hayotida tutgan o'rni, ularning vazifalari xaqida yoritib berilgan. Milliy cholg'u sozlarimizni ahamiyatini hozirda yoshlar hayotida keng targ'ib qilish, ularni o'rnini, asl xolatini saqlab qolish, hamda ularni takomillashida yurtboshimiz tomonidan yanada ham ko'p e'tibor berilayotgani ko'rishimiz mumkin. Bunday holatda biz yanada ham ko'proq milliy sozlarimizni yoshlar hayotida kamol toptirish har bir insonni vazifasidir.

Tayanch so'zlar: qobuz, do'mbira, qoshiq, qayroq, sato, changqobuz vargan.

O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan cholg'ular va cholg'u kuylari qadim qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga ega. Eramizning birinchi asrlarga oid manbalar tarix navislar asarlari, badiiy adabiyot namunalari va O'zbekistonda arxeolglar tomonidan topilgan qadimgi yodgorliklarda jumladan cholg'u asboblari va cholg'uchilar tasvirlangan haykalchalar devorlarga chizilgan badiiy rasmlar va boshqalar bundan dalolat beradi.

Bu yodgorliklarda tasvirlangan cholg'ularning ko'pchiligi keyingi asrlarda ham ishlatilganligi haqidagi ma'lumotlar o'rta asr olimlari Abu Nasr Forobiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Axmadiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning musiqaga oid asarlarida uchraydi.

O'tmishning zabardast shoirlari ham o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlari va ularning mohir ijrochilarini qayd etishda cholg'ularga murojaat etganlar.

Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ud, tanbur, chang, rubob, qo'biz, g'ijjak rud nay, surnay, karnay, daff (yoki doira) kabi o'rta asrlarda keng rasm bo'lgan cholg'ularning nomlari qayd etiladiki, ularning ko'pi bizgacha deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan.

Bu cholg'ular o'z tuzilishi va ijrochilik uslublarga qarab uch turga bo'linadi.

1. Urib chalinadigan musiqa asboblari bularga – doira, nog'ora, safoil, qoshiq va boshqalar
2. Puflab chalinadigan musiqa asboblari - nay, surnay, bulamon, qo'shnay, karnay.
3. Torli cholg'ular - qo'biz, g'ijjak, sato, tanbur, tor, dutor, do'mbira, afg'on rubob, qashqar rubob, ud, chang va boshqalar.



Cholg'u" va ashula kuylariga jo'r qilib chalinadigan usullar. Yakka doirada (yoki ikki-uch doirada) chalinadigan, asosan raqslarga jo'r bo'ladigan usullar. Usullar o'z tuzilishi jihatidan odatda ma'lum kuyning hususiyatlari hamda ashulada foydalanilgan she'r vazni bilan bog'langandir.

Shuning uchun ham she'r vazni va usul tuzilishi hamda ularning nazariy yoritish uslublarida umumiylik seziladi. Ma'lumki, she'riyatda aruz vazni asosini tashkil etuvchi qisqa va uzun bo'g'in birikmalarining turlarini o'rta asr olimlari unlili va unlisiz undosh harflar birikmalari yordamida, she'r vaznini esa shu yo'lda tuziladigan shartli formulalar bilan belgilaganlar

Cholg'u asboblarning umumiy ko'rinishi, parda tuzilishi va tembr-akustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasb-kor qurollarini o'zlariga moslashtirish yo'lidagi izlanish va intilishlarining samarasidir.

Cholg'ularda o'rnashib qolgan parda (tovushqator)lar esa ijrochi va tinglovchilarning ko'p avlodlari tomonidan uzoq tajriba jarayonida saralangan amaliy tizim. Cholg'u asboblarda tabiiy ravishda muhimlashgan parda birliklarini musiqa madaniyati tarixi moddiy ifodasining o'ziga xos ko'rinishi ham deyish mumkin.

Darhaqiqat, qaysi cholg'u asbobi bo'lmasin, mohiyatan musiqa amaliyotini takomillashtirishga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga qaratilgandir. Qadimgi davrlardan ma'lum bo'lgan qayroq, doira, nay, changqobuz, qilqobiz, do'mbira va shu kabi boshqa cholg'ularning har birida inson qalbining nozik tuyg'ulariga hamohang sadolarni izlab topish va ularni mukammal shakllarga keltirishning uzoq tarixi aks ettirilgan.

Butun dunyoga mashhur ud cholg'usining nomi u tayyorlanadigan ashyo shifobaxsh va xushbo'y modda ajratib olinadigan noyob ud "shamshod" daraxti bilan bog'liq. Musulmon mamlakatlaridagi ud, Xitoyda – piypo, Ovrupada lyutnya arabcha "al-ud" so'zidan olingan nomi bilan mashhur sozning kelib chiqish tarixi islom dini paydo bo'lishidan ancha oldin rivojlana boshlagan. Mutaxassislar fikricha, ud va unga tipologik jihatdan yaqin bo'lgan ikki torli dutorsimon cholg'u asboblarning tasvirlari Xorazm, So'g'd va Baqtriyadan topilgan eramizdan oldingi davrlarga mansub arxeologik materiallardan ham ma'lum.

Udsimon asbob tasvirining eng qadimiy nusxasi Afrosiyobdan topilganligi uchun organologiya faniga "afrosiyobudi" degan maxsus atama ham kiritilgan. Qadimiy tasvirlardagi ikki torli kaltaroq dastali cholg'u sozi hozirgi Xorazm dutori, do'mbira va boshqa shu kabi asboblarni eslatadi.



Afsuski, bu qadimgi cholg'u namunalarning asl nomlari bizgacha yetib kelmagan. Shu sababdan mazkur arxeologik topilmalar bilan ishlaydigan mutaxassislar ularni oddiygina qilib "ikki torli"lar deb ataganlar.

Musiqa asboblariga oid batafsil ma'lumotlar Kindiy, Forobiy, Ibn Sinolarning risolalaridan boshlab, to XX asr mualliflari Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda va Abdurauf Fitratlarning keyingi musiqa asarlari, shuningdek, Belyayev, Vizgo, Karomatli, Malkeyevalarning O'rta Osiyo musiqa Cholg'ushunosligi sohasidagi yangi tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. O'z davri musiqa ilmining eng ahamiyatli va ulkan manbai bo'lmish Abu Nasr Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" asari to'rtta asosiy qismdan iborat. Ularning biri musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. XX asrda dunyo xalqlari musiqa asboblarining universal tasnifot tizimini yaratgan nufuzli olimlar Kurt Zaks va Erix Xornbostellarning fikricha, asbobshunoslik – organologiya faniga Forobiy asos solgan. "Musiqa haqidagi katta kitob"da musiqashunoslik tarixida birinchi bor cholg'u sozlarining ilmiy tasnifoti bayon etilgan.

Forobiy musulmon olamining mumtoz sozlari bo'lmish ud, tanbur, rubob, qonun, arganun – organ, nay, surnay va boshqalarning ilmiy tavsifini bergan. Ushbu qatorda ud yetakchi o'rin egallaydi. Klassik musiqaning parda tuzilmalarining nazariy va amaliy asoslari aynan shu ud asbobining tovush tizimi yordamida tushuntiriladi.

Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlarining tarkibida kuy va raqs qonunlariga muvofiq mustaqil bo'lim ajralib turadi. Maqom uforlarida zarbli cholg'ular asosiy vazifalarni bajarsa, qayroq, zang va safoil yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan asboblar hisoblangan. Ular, asosan, raqsga jo'r bo'ladilar. Qayroq juft holda o'ng va chap qo'l bilan chalinadi. Buxoroda "shodiy", ya'ni quvonch va shodlik ifodalovchi deb ham ataladi. Bu o'rinda yana maqom tizimidan alohida ajralib turadigan qadimiy raqs kuylarining "Shodiyona" nomi bilan ataladigan majmuasini eslash ham joiz. Shodiyona va shodiy so'zlarining o'zagi bir. Keksa sozandalarning guvohlik berishicha, turkum shaklidagi "Shodiyona" Yunus Rajabiy nota yozuvlarida 12 qismdan iborat kuylari katta bayramlarda, sayl tantanalarida baland tovushli ansambllar, karnay-surnaylar, nog'ora va doira jo'rligida ijro etilgan.

Buxoro sozandalarning ana shunday mashhur kompozitsiyalaridan biri "Qayroqbozi" ya'ni qayroq raqsi deb nomlanadi. Xorazmda esa "Norim - norim", "Orazibon" kabi qayroqchalib ijro etiladigan mumtoz o'yin yo'llari mavjud.

Nog'ora va doiralar esa qayroq, zang va safoildan farqli o'laroq, mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan jo'rnavozlik va yakkanavozlikka mo'ljallangan cholg'ular



sirasiga mansubdir. Ma'lumki, nog'ora va doira zarblarini eshitib zavq olish odatlari O'rta Osiyo xalqlari musiqa tarixida qadim – qadimdan "nog'ora bazm" doira bazm" nomlari bilan mashhur bo'lgan. Temuriylar davriga mansub manbalarda qayd etilgan "miyatayn" kompozitsiyasi ushbu turdagi musiqiy tuzilmalardan biri. Miyatayn "ikki yuz", eng avvalo, muayyan usullar majmuasini nazarda tutadi.

O'zbek va tojiklarning to'y-tantanalarida shu kunlarda ham xonadon sohibining xohishiga qarab doira, nog'ora, karnay-surnay chalinishiga alohida vaqt ajratiladi. Bunda musiqachilar murakkab usul formulalaridan iborat turli kompozitsiyalar namoyish etadilar.

Mavjud umumiyliklar bilan bir qatorda nog'ora va doira turli yo'nalishdagi cholg'ular hisoblanadi. Nog'ora odatda buqa terisi qoplangan ikkita bir xil kattalikdagi sopol tuvakdan iborat cholg'u asbobi. Biriga teri bo'shroq tortib qoplanadi va u past sado beradi. Ikkinchisiga teri tarangroq tortilib, balandroq tovush chiqaradi. Mazkur cholg'u asosan cho'p ikki qarich uzunlikdagi behi daraxti chivig'i bilan chalinadi. Ansambl jo'rligida nog'oraning ovoz kuchi karnay, surnay kabi baland tovushli cholg'ularga muvofiq keladi. Doira nog'oraga nisbatan yumshoq mayin tembrga ega. U zarbli asboblarda ichida eng ohangdor va "kuychan" cholg'ular sirasiga mansubdir.

Doira haqida gapirganda, uning tembr-akustik jihatlari haqida alohida aytib o'tmoq joiz. Zarbli cholg'ular orasida u eng yumshoq, davomli va kuychan tovush sadolariga ega. Maqom va unga o'xshash mumtoz kuy va ashulalar ijrosida odatda katta hajmdagi yumshoq tovushli doiradan foydalanilgan. Qizdirilganda bu asbob xumorli, cho'ziqtovush beradi. Ana shunday mayin sirli-sexrli sado chiqarish uchun doira chalayotgan sozanda oldiga tovush qaytarg'ich rezonator vazifasini bajaruvchi suv to'ldirilgan tog'ora qo'yilgan. Sho'x ufor raqs qismlarining ijrosi uchun esa nisbatan kichik o'lchamli jarangdor qattiq qizdirilgan doiralardan foydalanilgan. Sozandalar orasida asbobning ohangdorligi "kuychanlig'i" ya'ni, cholg'udan chiqadigan sadoning davomiyligi, cho'ziqlig'i darajasining ifodasi degan tushuncha bor.

Nog'ora usullari ham mumtoz musiqaga surnay orqali joriy bo'ladi. Klassik musiqa tizimida surnayning tovush ko'lami va ijrochilik imkoniyatlaridan kelib chiquvchi maxsus kuylar, ko'p qismli asarlar – surnay yo'llari "surnay maqomlari" deb ataluvchi an'anaviy dastur, repertuar shakllangan. Unda tom ma'nodagi maqom yo'llari doirasidan tashqaridagi kuylar ham muhim o'rin egallaydi.

O'zbek mumtoz musiqamizda XX asrning 40-yillaridan boshlab esa milliy cholg'ularimizning yangi avlodini yaratishga ya'ni ularni qaytadan rekontruksiya qilishda





O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Ashod Ivanovich Petrosyants rahbarlik qildi. U rus musiqa cholg'u ustalari V.Romanchenko, A.Kevxozyants, S.Didenkolar bilan hamkorlikda rus xalq cholg'u asboblarini yangilash tajribasidan kelib chiqib, milliy sozlarimizni yangilashga kirishiladi va anchagina ishlar amalga oshirildi. Keyinchalik cholg'u asboblarini yangilash va ularni takomillashtirishga o'zbek ustalari Xirojiddin Muhiddinov, Abdunabi Abdug'afurov, A.Tarasov, V.Shtikov, M.Turdiyev kabi yosh mohir ustalar ham jalb qilinadi. Ustalar tomonidan dutor va tanbur, keyinroq g'ijjak, rubob cholg'ulari shuningdek, damli sozlar ham qayta ta'mirlana boshlandi, ularning yangi avlodini yaratishga imkoniyatlar yaratildi.

Bu esa o'z navbatida milliy sozlarimizda faqat milliy musiqamiznigina emas, balki professional kompozitorlar asarlarini, shuningdek jahon xalqlari musiqasini ijro etish imkoniyatiga zamin tayyorlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bahrom Madrimov "O'zbek musiqa tarixi" – Toshkent 2015
2. Т. Е. Соломонов "Ўзбек музикаси тарихи" издательство "Музыка" 1979 йил. Ўзбек тилига таржима "Ўқитувчи" 1981 й.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi" – Toshkent, "Fan va texnologiya" 2018.
4. N.Yuldasheva, N.Raxmatova "O'zbek musiqa adabiyoti" – Toshkent «Iqtisod-moliya» - 2016
5. Oydin Abdullayeva "CHOLG'SHUNOSLIK" «Musiq» nashriyoti Toshkent – 2018.
6. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – Davlat milliy nashriyoti – Toshkent – 2003.

